



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2021/3



MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY
TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 **ISMOILOV BEKJON SALHOVICH**
Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini
ta'minlashda xorijiy tajriba va milliy qonunchilikni
takomillashtirish istiqbollari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 17 **ЭРГАШЕВ ИКРОМ АБДУРАСУЛОВИЧ**
Солиқ интизомини бузганлик учун
молиявий жавобгарлик
- 24 **БАБАДЖАНОВ АТАБЕК
ДАВРОНБЕКОВИЧ**
Маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик
органлари шаклланишида сиёсий партиялар
иштирокининг конституциявий-ҳуқуқий асослари

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 33 **БОЗАРОВ САРДОР
СОХИБЖОНОВИЧ**
Стратегии и перспективы развития
искусственного интеллекта в мире и Республике
Узбекистан: сравнительный анализ
- 46 **УСМОНОВА МУНИСХОН
ЙЎЛДОШ ҚИЗИ**
Фуқаролик муносабатларида жисмоний
шахс иштирокининг нормал ҳолатини
таъминловчи юридик мезонлар тавсифи
- 54 **БАБАКУЛОВ ЗАФАР
КУРБОННАЗАРОВИЧ**
Киберсквоттинг – товар белгиларини
ноқонуний ўзлаштиришда янги хавф (илмий
ва амалий таҳлил)

12.00.04 – FUQAROLIK
PROTSESSUAL HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA
MEDIATSIYA

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI.
IJTIMOIY TA'MINOT HUQUQI

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI,
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

67 **САИДМАВЛОНОВА ГУЛАСАЛХОН
САИДАКРАМХОН КИЗИ**

Перспективы применения зарубежного
опыта правового регулирования
инвестиционных отношений в Республике
Узбекистан

77 **ҚУТЛИМУРАТОВ ФАРХАД ҚАЛБАЕВИЧ**

Қайта ташкил этилаётган юридик шахс
кредиторлари ҳуқуқларини ҳимоя қилиш
механизмларининг умумий тавсифи

86 **ХУДОЙНАЗАРОВ ДАДАХОН АБАЗ ЎҒЛИ**

Низоларни судга қадар ҳал этиш усуллари:
миллий ва хорижий тажриба

93 **ХОЖАБЕКОВ МУФТУЛЛА
ЖОЛМУРЗА ЎҒЛИ**

МДХ мамлакатлари қонунчилиги мисолида
ўриндошлик асосида ишлашнинг қиёсий
таҳлили

103 **УРАЗАЛИЕВ МУРОД КОРАЕВИЧ**

Причины и условия преступлений,
связанных с наркоманией

112 **ТОШПУЛАТОВ АКРОМ ИКРОМОВИЧ**

Жиноят-ҳуқуқий принципларни тадқиқ
қилишда умумилмий методларнинг
қўлланилиши

121 **ДЖАЛИЛОВ ФУРКАТ ЗАКИРОВИЧ**

Давлат хизматчисининг қонунга ҳилоф
мулкый манфаатдорлиги билан боғлиқ
жиноятлар субъектига доир нормаларни
такомиллаштириш масалалари

- 127 **САГДУЛЛАЕВ ФАТХУЛЛА ШУКРУЛЛАЕВИЧ**
Ҳокимият ёки мансаб ваколати доирасидан
четга чиқиш учун жавобгарлик белгиловчи
жиноят қонунчилиги нормаларининг
ривожланиши тенденциялари
-

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

- 135 **ТАШЕВ АЗИЗБЕК ИБРАГИМОВИЧ**
Понятие и значение института отведения
несовершеннолетних от системы правосудия
-

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA
NAZARIYASI VA METODIKASI
(SOHALAR BO'YICHA)

- 143 **JUMANIYOZOVA NURIYA AHMEDOVNA**
Tilshunoslikda yuridik diskurs o'rganilishi:
maqsad va vazifalari
-

UDC: 41 J-87

ORCID: 0000-0001-5469-2223

TILSHUNOSLIKDA YURIDIK DISKURS O'RGANILISHI: MAQSAD VA VAZIFALARI

Jumaniyozova Nuriya Ahmedovna,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti,
e-mail: jumaniyozovanuriya@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola yuridik diskurs va uning tilshunoslikda o'rganilishi haqida bo'lib, yuridik diskursning o'rganilish bosqichlari va yondashuvlari yuzasidan zaruriy ma'lumotlar beradi. Bilamizki, yurislingvistikaning obyekti hisoblanuvchi institutsional diskursning mazkur turi bugungi kunga qadar ko'plab xorijiy tilshunos va huquqshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lsa-da, o'zbek tilshunosligida bu diskurs turi pragmatolingvistik yondashuv asosida hanuzgacha o'rganilmagan. Bu esa mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Shuning uchun maqolada dastlab yuridik diskursning uchta yondashuv doirasida o'rganilishi misollar bilan ko'rsatilgan va shu qatorda uning boshqa diskurs turlaridan farqli jihatlarini ko'rsatuvchi maqsad va vazifalari haqida ham fikr yuritilgan. So'zsiz, bugungi kunda yuridik diskursning lingvistik tahlili va o'rganilishi katta ahamiyatga ega, chunki ushbu diskurs turi nafaqat qonun, balki hayotning barcha jabhalarini o'z ichiga qamrab oladi. Demak, til va qonun o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish ko'pgina sohalarining obyektiga aylangan, shu jumladan, tilshunoslikning ham. Yuridik diskurs – bu barcha yuridik tuzilmalar, ular doirasida qo'llaniladigan ham og'zaki, ham yozma yuridik matnlar va ularning o'ziga xos maxsus professional atamalaridan iborat bo'lgan, shuningdek, yuridik til va yuridik nutqning barcha qoida va me'yorlariga bo'ysunuvchi institutsional diskurs turidir.

Kalit so'zlar: yuridik diskurs, yondashuv, sud lingvistikasi, tilshunoslik, professional atamalar, metaforik modellashirish, yuridik til, yuridik nutq.

ИЗУЧЕНИЕ ЮРИДИЧЕСКОГО ДИСКУРСА В ЛИНГВИСТИКЕ: ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ

Жуманиёзова Нурия Ахмедовна,
докторант Узбекского государственного
университета мировых языков

Аннотация. Данная статья посвящена юридическому дискурсу и его изучению в лингвистике, а также содержит существенную информацию об этапах и подходах к изучению юридического дискурса. Как известно, этот тип институционального дискурса, считающийся предметом судебной лингвистики, до сих пор изучался многими зарубежными лингвистами и юристами, однако эта форма дискурса в узбекском языкознании до сих пор не изучена на основе прагматингвистического подхода. И это показывает актуальность темы. Поэтому в статье изначально приводятся примеры исследования правового дискурса в рамках трех подходов, а также дается обзор его целей и задач, которые представляют собой различные аспекты от других видов дискурса. Несомненно, сегодня лингвистический анализ и изучение юридического дискурса имеет большое значение, поскольку он охватывает все стороны жизни. Таким образом, изучение отношений между языком и правом стало предметом изучения многих областей, в том числе и лингвистики. Юридический дискурс – это разновидность институционального дискурса, который состоит из всех правовых структур, как устных, так и письменных юридических

текстов, применяемых в них, и их специфических профессиональных терминов, и следует всем правилам и нормам юридического языка и юридической речи.

Ключевые слова: юридический дискурс, подход, судебная лингвистика, лингвистика, профессиональные термины, метафорическое моделирование, юридический язык, юридическая речь.

THE STUDY OF LEGAL DISCOURSE IN LINGUISTICS: GOALS AND OBJECTIVES

Jumaniyozova Nuriya Akhmedovna,

Base Doctoral Student

Uzbekistan State World Languages University

Abstract. This article is devoted to the legal discourse and its study in linguistics, and contains essential information on the stages and approaches to the study of legal discourse. In fact, although this type of institutional discourse, considered a subject of forensic linguistics, has so far been examined by many foreign linguists and lawyers, it is not yet studied in Uzbek linguistics based on a pragmalinguistic approach. Indeed, this shows the relevance of the topic. Therefore, the article initially provides examples of the study of legal discourse within the framework of three approaches, as well as an overview of its goals and objectives, which are different aspects from other types of discourse. Undoubtedly, the linguistic analysis and scientific research of legal discourse is of great importance today since it covers all aspects of life. Thus, the study of the relationship between language and law has become a subject of research in many fields, including linguistics. Legal discourse is a kind of institutional discourse, which consists of all legal structures; both oral and written legal texts applied within them and their specific professional terms, and follows all the rules and norms of legal language and legal speech.

Keywords: legal discourse, approach, forensic linguistics, linguistics, professional terms, metaphorical modeling, legal language, legal speech

Kirish

Ma'lumki, til va huquqning o'zaro munosabati va ularning o'ziga xos xususiyatlari uzoq davrlardan beri tilshunos va huquqshunos olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Mazkur ikki soha o'rtasidagi aloqa esa XIX asrning boshlarida Germaniyada yangi ijtimoiy mavzularning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Masalan, XX asrning 70-yillariga kelib fuqarolarga tushunarli bo'lgan idoraviy muassasalar tilini yaratishga bo'lgan talab huquqshunoslik va tilshunoslik o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamladi; 80-90-yillarda esa tilshunoslar gender tengligini ta'minlovchi yangi qonunlar tahririda ishtirok etdilar [1, 15-b.]. Natijada bu yurislolingvistika fanining tilshunoslikda alohida yangi yo'nalish sifatida ajralib chiqishi hamda qonun va til o'rtasidagi munosabatlarning yanada chuqurroq o'rganilishiga olib keldi, chunki yuridik til va nutqning o'ziga xos xususiyatlari bo'lmish to'g'rilik, sof-

lik, jo'yalilik, o'rinlilik, ta'sirchanlik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik va maqsadga muvofiqlikni ta'minlashda tilshunoslik fanining o'rni beqiyosdir. Yuridik nutq (og'zaki yoki yozma)ning to'g'riligi ohang, urg'u va grammatik me'yorlarga qat'iy rioya etishni taqozo etsa, aniqlikni ta'minlashda yuridik tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatorlardan zarurini ajratib olish, ko'p ma'noli, omonim, paronim so'zlarga jiddiy e'tibor berish, yuridik terminlarni yaxshi bilish va hokazolar talab etiladi. Bundan tashqari, ushbu nutqning rang-barangligi deyilganda, avvalambor, yuridik tilning leksik imkoniyatlari (ma'nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlar, tasviriy ifoda va iboralar, o'zbek xalqining qochiriy so'zlari va frazeologik birikmalar, o'xshatish, sifatlash, istiora, mubolag'a, ritorik so'roq gaplar)dan foydalanish nazarda tutiladi. Shunga ko'ra, yuridik tilning keng imkoniyatlarini ochib berishda

to'g'ridan-to'g'ri tilshunoslik faniga murojaat etishimizga to'g'ri keladi. Bu esa, o'z navbatida, qonun va tilning o'zaro bog'liqlikda o'rganilishiga sabab bo'ladi.

Yevropa, Amerika, Rossiya va boshqa qator rivojlangan davlatlarda ushbu fan allaqachon fan dasturi sifatida bo'lajak yurist xodimlarni tayyorlashda o'z o'rniga ega bo'lib ulgurgan. Binobarin, AQSHning Chikago, Illinoys universitetlarida, Fransiya, Shvetsiya, Angliya va Rossiyaning deyarli barcha yuridik o'quv yurtlarida yuridik til va yuristning nutq madaniyati bilan bog'liq bilimlarni talabalarda shakllantirishga e'tibor qaratilgan va buning zahirida talabalarning "Yuridik nutq", "Sud notiqligi", "Sudda nutq so'zlash va haqiqat muammolari", "Yozma nutq", "Ommaviy muomala nutqi", "Siyosiy nutq", "Ijtimoiy nutqiy muomala", "Bayonnomalar (protokollar) tahlili", "Nutq maktabi", "Nutq o'rganishga kirish" kabi o'quv kurslarini puxta egallashlari nazarda tutiladi [2, 148–154-b.]. Ta'kidlash lozimki, xorij amaliyotida tilshunoslik va huquqshunoslik asosida paydo bo'lgan yangi ilmiy soha – "Forensic linguistics", ya'ni sud lingvistikasi kelib chiqishida britaniyalik yozuvchi va tilshunos Yan Svartvikning o'rniga katta. Negaki u 1968-yilda o'z ayoli va o'g'lining o'limida aybdor deb topilgan va o'limga mahkum etilgan Timoti Evans ishi bo'yicha sud materiallarini lingvistik ekspertizadan o'tkazib, mahkumning aybdor emasligi isbotlanishi va oqlanishiga sababchi bo'lgan. B. Pozzo, J. Gibbons, J. Olsson, M. Coulthard & A. Johnson, P. Goodrich, J.M. Conley & W.M. O'Barr, J. Engberg va boshqalar ham til va qonun o'rtasidagi munosabatlarni, sud lingvistikasi (forensic linguistics) va shu fan doirasidagi yuridik diskurs o'rganilishiga o'z hissalarini qo'shishgan [3].

Rossiyada esa yurislingvistika fanining rivojlanishida til va qonun o'rtasidagi munosabatning turli muammolari bo'yicha ko'plab olimlarning ishlari o'z ichiga olgan "Юрислингвистика" nomli ilmiy to'plam rahbari hisoblangan N.D. Golevning hissasi katta bo'lib, olim qonun va til o'rtasidagi muno-

sabat o'rganilishi jihatidan yurislingvistika hamda lingvoyuristikani bir-biridan farqlaydi va ularga shunday izoh beradi: "Yurislingvistika va lingvoyuristikaning obyekti – bu qonun va tilning o'zaro aloqasi bo'lib, tilning qonunga bo'lgan munosabati yurislingvistika doirasida o'rganiladi va aksincha, qonunning tilga munosabati esa lingvoyuristikaga tegishlidir. Shunga muvofiq, tilning yuridik aspekti yurislingvistikaning predmeti bo'lsa, qonunning lingvistik jihatida lingvoyuristikaning predmetidir" [4, 11-b.]. Bundan tashqari, N.A. Dobrol'yubov nomidagi Nijniy Novgorod davlat lingvistika universiteti rus filologiyasi va umumiy tilshunoslik kafedrasi professori M.A. Grachev rahbarligida "Лингвокриминалистика" ilmiy maktabi tashkil etilgan bo'lib, unda, asosan, jinoyat olami subkulturasini va sud lingvistikasi ekspertizasi muammolari faol o'rganilmoqda [5, 213–220-b.]. Shu bilan birga, bugungi kunga qadar yuridik diskurs, uning o'ziga xos xususiyatlari va diskursiv tahliliga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlar mavjud bo'lib, ular qatorida ayrimlarini alohida ta'kidlashimiz mumkin. Jumladan, O.V. Kosonogova, L.V. Sputnikova, T.V. Uskova, A.V. Balamakova, M.N. Fedulova, I.V. Palashevskaya, G.V. Kubits, L.E. Popova va boshqalarning yuridik diskurs, uning tipologiyasi, maqsad va vazifalari, boshqa o'ziga xos lingvistik hamda ekstralingvistik xususiyatlarini o'rganishda amalga oshirgan ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyatga egadir [6, 61–68-b.].

O'zbekistonda yuridik til va qonun o'rtasidagi o'ziga xoslik shu kunga qadar, asosan, yurisprudensiya doirasida o'rganilgan bo'lib, tilshunoslikda esa amalga oshirilgan ilmiy ishlarning ko'pchiligi yuridik terminologiya muammolarini yoritishga qaratilgan va ular qatorida P.P. Nishonov, G.Y. Gulomova, O.F. Tursunova va M.X. Qosimovalarni alohida ta'kidlashimiz mumkin [7].

Ayniqsa, yurislingvistikaning yurtimizda o'rganilishida Sh. Ko'chimovning ishlari diqqatga sazovordir. Tilshunos olimning "Yu-

ridik til nazariyasi va amaliyoti" nomli monografiyasi va "O'zbekiston Respublikasi qonunlarining tili", "Huquqiy normalarni o'zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muammolari" deb nomlangan nomzodlik va doktorlik ilmiy dissertatsiyalarida huquq, qonun va til o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, qonunchilik uslubiyati, qonun tilining o'ziga xos xususiyatlari hamda yuridik atamashunoslik muammolari o'rganilishiga alohida e'tibor qaratilgan [8].

Shuningdek, olim tomonidan yaratilgan va sohaga oid jahon va mamlakatimizda yuz berayotgan yangiliklar, ko'plab darslik, o'quv qo'llanmalari, lug'atlar, ilmiy maqolalar hamda ilmiy tadqiqot ishlarini o'zida jamlagan maxsus veb-sayt ham yurislingvistika bo'yicha kerakli ma'lumot olishda asosiy manba vazifasini bajara oladi. Darvoqe, 2019-yil iyun oyida Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi Qodirjon Mo'ydinov "O'zbek tili sud leksikasi" nomli nomzodlik dissertatsiyasi-

ni muvaffaqiyatli himoya qildi [9]. Mazkur ilmiy ish o'zbek tili sud nutqi leksikasining lingvistik xususiyatlari, ya'ni sud nutqida uchraydigan leksik birliklarning tuzilishiga ko'ra turlari va leksik-semantik guruhlarini aniqlash, leksik birliklarning ma'nodoshlik, zidlik, jins va tur, butun va bo'lak, darajalanish kabi jihatlarini o'rganishda har qanday o'quvchini kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlaydi [10]. Ammo mamlakatimizda hanuzgacha yuridik diskurs va uning o'ziga xos lingvistik xususiyatlari bilan bir qatorda pragmalingvistik xususiyatlari keraklicha o'rganilmagan. Bu esa, o'z navbatida, ushbu mavzuni chuqurroq tadqiq etish zaruriyatini tug'diradi.

Material va metodlar

Tabiiyki, tilshunoslikda yuridik diskurs o'rganilishi ham diskurs singari bir nechta yondashuvlarga asoslanadi va ularni M.E. Mosesova tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi jadval asosida ko'rishimiz mumkin [11, 7-b.].

1-jadval

Yondashuvlar	Mohiyati	Namoyondalari
Sotsiolingvistik	Yuridik diskursning institutsionallik xususiyatlari va zaruriy elementlar (qatnashuvchilar, xronotop, maqsadlar va b.) mavjudligiga asoslanadi.	V.I. Karasik, I.V. Palashevskaya, O.V. Kosonogova, A.V. Chernishev va boshq.
Pragmalingvistik	Taktika, strategiya, so'zlashuv va boshqa shu kabi til vositalarining ma'lum bir to'plami tomonidan amalga oshiriladigan kommunikatorlarning nutqiy xulq-atvorini tahlil qilishga qaratilgan.	E.F. Usmonov A.F. Cherdantsev, J.L. Mey va boshq.
Kognitiv	Yuridik soha doirasidagi aloqa ishtirokchilari ongidagi aqliy jarayonga e'tibor qaratiladi. Natijada esa diskurs freym, konsept va boshqa kognitiv tuzilmalar yordamida modellastiriladi.	L.V. Pravikova, M. S. Medvedeva, M.V. Laskova va boshq.

Ko'rinadiki, sotsiolingvistik yondashuv nuqtayi nazaridan yuridik diskurs status (maqom)-yo'naltirilganlik va institutsionallik xususiyatlariga ega bo'lgan, kommunikatsiya holati va kommunikatorlarning yoshi, jinsi, mavqeyi, ma'lumoti, millati va boshqa shu kabi jihatlariga qarab tavsiflanadi. Ta'kid-

lash lozimki, kommunikatorlar muloqot jarayonida turlicha rollarni bajaradilar va interlokutor xususiyatlarini ko'rsatish va muloqot jarayonidan kelib chiqqan holda, bir xil fikrni yetkazish uchun turli xil lingvistik vositalardan foydalanadilar. Misol tariqasida aytish mumkinki, kodeks va boshqa huquqiy

hujjat mualliflari ma'lumotni yetkazish uchun maxsus koddan foydalanadilar, chunki ular ma'lum bir auditoriya-yurist xodimlar uchun mo'ljallangan. Shuning uchun ham maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslar uchun matnda mujassamlangan sof ma'noni qayta tiklash murakkab hisoblanadi. Bu esa yuridik diskursning sotsiolingvistik yondashuv doirasida statusga yo'naltirilganlik xususiyatini ko'rsatadi [12, 5-7-b.]. O.V. Kosonogova esa sotsiolingvistik jihatdan yuridik diskursni institutsional diskursdagi verbal va noverbal belgilar majmuyi bilan ifodalanuvchi semiotik makonga ega bo'lgan diskurs deya baholagan va o'zidagi subyekt, adresat yoki kontent (yoki ushbu tarkibiy qismlardan kamida bittasi)ning yurisprudensiya bilan bog'liqligi yoki boshqa diskurs turlari (tariixiy, siyosiy, harbiy, pedagogik va h.k.) bilan aloqaga kirishish xususiyatiga ko'ra ham sotsiolingvistik yondashuvni o'zida aks ettiradi [13, 61-68-b.].

Tadqiqot natijalari

Pragmalingvistik yondashuv esa yuridik diskursni muloqot jarayonida foydalaniladigan lingvistik vositalar, shuningdek, adresat maqsadi va nutq *strategiya* (kognitiv jarayon, so'zlovchining kommunikativ maqsadini o'ziga xos lingvistik vositalar bilan bog'lashi)-si nuqtayi nazaridan o'rganadi, ya'ni u lokutiv, illokutiv hamda perlokutiv nutq aktlari misolida ko'riladi [14, 280-b.]. Binobarin, mazkur yondashuv sud kontekstida tildan foydalanish masalalari, so'zlovchi maqsadi, nutq strategiyasi va taktikasi, nutqning maqsad va vazifalarini o'rganishni birinchi o'ringa qo'yadi. Shunga muvofiq, kommunikator lingvistik vositalarni tanlaydi. Masalan, sud jarayonida tortishuv elementi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ko'rilayotgan ishning natijasi ko'p hollarda advokatning sudyaga qanchalik ta'sir ko'rsata olganligida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, advokatlar ushbu jarayonda notiq rolini o'z zimmlariga oladilar va ularning ishda qay darajada muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p hollarda tanlangan til vositalariga bog'liq. Bu esa ular-

ning yuridprudensiyadan tashqari adabiy va yuridik til me'yorlarini bilishlari kerakligini anglatadi. Shuning uchun xorijiy mamlakatlarda advokatlar boshqa huquq-targ'ibot organlariga qaraganda nisbatan yuqori o'ringa qo'yiladi [15, 90-91-b.].

Yuridik matnlar misolida esa:

Lokutsiya – bu matnning o'zi;

Illokutsiya – bu shu matnda keltirilgan takliflar, dalillarning ba'zi shakllari;

Perlokutsiya – ushbu matnni qabul qiluvchiga ta'siri demakdir.

Demak, pragmalingvistik yondashuv yuridik diskursning lisoniy belgilari bilan birgalikda nolisoniy belgilarini ham o'z ichiga oladi. Bu esa so'zlarning belgilangan terminologik bazadagi ma'nosidan tashqari ma'no ko'chishi tufayli yuzaga kelgan yuridik diskursdagi yangi ma'nosini tushunish ehtiyojini tug'diradi. Buni quyidagi metonomik neologizmdan foydalanilgan misol orqali ko'rib chiqishimiz mumkin:

– *So do you have any tattoos?*

– *No, I'm a cleanskin, can't you tell?*

Berilgan misoldagi "*cleanskin*" so'z birikmasini birinchi navbatda "*a person with no tattoos*", ya'ni "*tatirovkasiz odam*" ma'nosida tushunishimiz mumkin. Lekin yuridik diskursda "*No, I am a cleanskin*" deyish orqali esa ushbu so'zning boshqa "*a person with no criminal record*", ya'ni "*sudlanganligi bo'lmagan shaxs*" yoki "*ilgari sudlanmagan shaxs*" kabi ma'nosiga ega bo'lamiz.

Bundan ko'rinadiki, so'z ma'nosi qachonki konseptual asosi va tegishli diskursi aniq bo'lsagina oydinlashadi.

Kognitiv yondashuv esa yuridik diskursni kommunikatorlar ongida paydo bo'ladigan aqliy obrazlar-freymmlar va ularning interpretatsiyasi (talqini) yuzasidan ko'rib chiqadi, ya'ni ushbu yondashuv diskurs struktura va birliklarining tasnifidan muloqot qatnashuvchilarining ong strukturalarini modellash-tirishga o'tishga imkon beradi va yuridik diskursning kognitiv bazasini modellash-tirish yuridik sohadagi nutqiy aloqaga daxldor

bo'lgan metaforik modellar, diskurs freymi va konsept tahlili orqali amalga oshiriladi [16, 5–7-b.]. Mazkur diskursda qo'llaniladigan *law* (qonun), *right* (huquq), *crime* (jinoyat), *justice* (adolat), *punishment* (jazo), *equality* (tenglik), *proof* (dalil), *judgement* (hukm), *honesty* (halollik/vijdonlilik), *sentence* (hukm) va boshqa shu kabi so'zlarni asosiy konseptlar sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Shu o'rinda metaforikmodellastirishda, asosan, yuridikdiskursni kognitiv modellastirish to'g'risida savol tug'ilishi tabiiy. Kognitiv modellastirish asosida inson miyasida voqelik to'g'risidagi to'plangan bilimlarni yig'ish, qayta ishlash, tizimlashtirish va saqlashni ta'minlaydigan sxema yaratiladi. Metaforik modellastirish yoki kognitiv metaforik nazariya 1980-yilda amerikalik faylasuf va kognitiv tilshunos olimlar G. Lakoff hamda M. Jonsonlar tomonidan rivojlantirilgan bo'lib, ular kognitiv metaforani so'z yoki tilga bog'liq emas, balki fikr va konseptual sistema orqali shakllanadi deb hisoblashadi [17, 5-b.], ya'ni kognitiv lingvistika doirasida tadqiq etiluvchi konseptual metafora ikkita konseptual sohadan (domain) iborat bo'lib, unda bitta domenning metaforik ifodasi boshqasi orqali oydinlashadi. Shunga ko'ra, konseptaul metaforalar quyidagi domenlarni o'z ichiga oladi: source domain (manba domeni) va target domain (maqsad domeni) [18, 4-b.]. Ingliz yuridik diskursida manba domeni "war" (urush), "combat" (jang), "attack" (hujum) bo'lgan "*Courtroom trial is a battlefield*" (*Sud jarayoni – bu jang maydoni*) yoki "*Court is war*" (*Sud – bu urush*), "*Cross-examination is a fight*" (*Sud tergov – bu jang*) kabi konseptual metaforalar yuzaga kelgan bo'lib, *courtroom trial* yoki *court* va *cross-examination* domenlari berilgan metaforalarda maqsad domeni vazifasini bajaradi [19, 123-b.]. Bilamizki, urushda tomonlar bir-birlarini mag'lub etishga harakat qilishadi va xuddi shunday sud jarayoni ham taraflar tortishuvi va bahs-munozarasiga asoslanadi. Bu esa kurashda ustunlikni qo'lga kiritishga intilayotgan tomonlarning qarama-qarshiligidagi o'xshashlik berilgan misollarning konseptual

metafora deb atalishiga sabab bo'ladi. Bunday konseptual metaforalarni o'zbek yuridik diskursida ham uchratishimiz mumkin. Masalan, "*Sud – adolat qo'rg'oni*", "*Yuristlar – huquq posbonlari*" yoki "*Qonun himoyachilari*", "*O'g'rilar – jamiyat yarasi*" va hokazo.

Ammo bugungi kunga kelib zamonaviy tadqiqotlarda bir vaqtning o'zida bir nechta ilmiy yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatlarini birlashtiruvchi va diskurs sohasini har tomonlama tahlil qiluvchi integral yondashuv keng qo'llanilmoqda. Natijada bu yondashuv yuridik diskursni kognitiv, lingvistik, madaniy, ijtimoiy va kommunikativ jihatdan ko'rib chiqadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Albatta, har qanday diskurs turining o'rganilishi, avvalambor, uning o'ziga xos maqsad va vazifalarini belgilab olishdan boshlanadi. Zero, ular o'rganilayotgan diskursning boshqa diskurs turlaridan farqli jihatlarini ko'rsatishdagi asosiy omillar sanaladi. Shu qatorda yuridik diskurs ham institutsional diskurs turi sifatida o'z oldiga bir nechta maqsad va vazifalarni qo'yadi.

Ko'plab izlanishlar shuni ko'rsatadiki, yurisprudensiya nuqtayi nazaridan yuridik diskursning yetakchi maqsadi – bu qonun ustuvorligini ta'minlash bo'lib, bunda, asosan, qonunlarga rioya etish, ularni hurmat qilish, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va adolatni qaror toptirish ko'zlanadi. Shu bilan birgalikda, ba'zi tadqiqotchilar axborot berish, tahlil qilish, baholash, ta'sir o'tkazish va boshqa qator maqsadlarni ham qo'shishgan va shu maqsadlardan kelib chiqqan holda, yuridik diskursning o'ziga xos vazifalarini ham qayd etishgan. Shunday tadqiqotchilardan biri I.V. Palashevskaya quyidagi sakkizta vazifalarni sanab o'tadi: 1) *tartibga soluvchi* (регулятивная) – yuridik institut agentlari, agentlar va mijozlar o'rtasida, umuman olganda, huquqiy institut hamda jamiyat o'rtasidagi o'zaro harakatlarni belgilaydigan norma va qadriyatlarini o'rnatish va tartibga solish; 2) *ijro etuvchi/performativ*

(перформативная) – qonun dunyosini tashkil etuvchi kommunikativ amaliyot va faoliyatlarni amalga oshirish; 3) *axborot beruvchi* (информативная) – yuridik kommunikativ jarayondagi ma'lum ma'lumotlarni yaratish va uzatish;

1) *prezentativ* (презентационная) – yuridik institut va vakillarining o'ziga xos qiyofasi hamda qonun mavqeyini namoyish etish;

2) *izohlovchi/talqin qiluvchi* (интерпретационная) – yuridik muloqot ishtirokchilarining kommunikativ harakatlari va ularga tegishli bo'lgan huquqiy matnlar (hujjatlar) ma'nolarini izohlash;

3) *kumulyativ* (кумулятивная) – tarixiy jihatdan yuridik ma'lumotlarni to'plash, saqlash va tahlil qilish, ya'ni "institutsional xotira"ni yaratish;

4) *strategik* (стратегическая) – muloqot maqsadiga erishishda me'yoriy shartli strategiya va o'zaro ta'sir taktikasini tanlash;

5) *kodlovchi* (кодовая) – institutsional faoliyatning maqsad va vazifalarini amalga oshirish va diskurs agent va mijozlari o'rtasida chegara o'rnatishda samarali bo'lgan maxsus tilni yaratish [20, 536-b.].

I.A. Vinogradovga ko'ra, yuridik aloqaning quyidagi vazifalari mavjud [21, 124-125-b.]:

normativ (нормативная) – jamiyatdagi barcha axloq-odob qoidalari va me'yorlarini tartibga solish;

performativ (перформативная) – yuridik institutlar tomonidan qabul qilingan yoki e'lon qilingan ko'rsatmalar yoki harakatlarning aniq bajarilishini ta'minlash;

deklarativ (декларативная) – huquqiy qadriyatlar, ko'rsatmalar va g'oyalar haqida xabar berish;

preskriptiv (прескриптивная) – muayyan harakatlarning bajarilishi yoki bajarilmasligi bo'yicha ko'rsatmalarni amalga oshirish;

informativ (информационная) – yuridik ma'lumotni yuridik matnlar orqali adresatga uzatish;

analitik (аналитическая) – yuridik matnlarda normativ-huquqiy aktlar, sud qarorlari va b.larni tahlil qilish;

prezentativ (презентационная) – yuridik institutlarning ijobiy obraz/ko'rinishini yaratish;

baholovchi (оценочная) – yuridik diskurs doirasidagi shaxslar xatti-harakatlarini baholash;

parollovchi (парольная) – yuridik institut mutaxassisleri hamda foydalanuvchilari o'rtasidagi chegarani belgilash.

Ko'rinadiki, nomlanishidagi farqni hisobga olmagan taqdirimizda ikkala yuridik diskurs vazifa turlari bo'linishi orasidagi farq sezilarli emas va berilgan ma'lumotlarga asoslanib, biz ham mazkur vazifa turlarini izohlashga harakat qildik. Avvalo, qonun o'z tabiatiga ko'ra tartibga solish xususiyatiga ega bo'lib, uning maqsadi ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishdir. Tartibga solish deyilganda esa shaxslar xulq-atvoriga chegara belgilash, ijtimoiy munosabatlarga barqarorlik, tartib-intizom kabi me'yorlarni singdirish hamda ularni ma'lum yo'nalishga yo'naltirish nazarda tutiladi. Yuridik diskursning bu vazifasi uning asosini tashkil etuvchi "qonun" va "huquq" tushunchalarida aks etadi, ya'ni yuridik diskursning normativ asosini konstitutsiyaviy normalar va tartibga soluvchi, rasmiy qoidalar hamda ijtimoiy xatti-harakatlarning norasmiy ko'rsatkichlari tashkil etadi. I.A. Vinogradov ham normativlikni yuridik diskursning asosiy funksiyasi sifatida ko'rsatib, jamiyatda xulq-atvor normalari tizimi bolalikdan boshlab belgilanishi hamda ushbu normalar va qoidalarni buzganlik uchun kodeks va boshqa qonun hujjatlarida jazoning mustahkamlanganligini alohida ta'kidlab o'tadi [21].

Shubhasiz, yuridik til, birinchi navbatda, o'z ishtirokchilariga ega bo'lgan institutsional munosabatlar doirasidagi ma'lum bir ijtimoiy ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish maqsadida qo'llaniladi. Shu nuqtayi nazardan, performativlik (ingliz tilida "perform" – "ijro etish") mashhur tilshunos J. Ostin tomonidan

nutq orqali harakatni bajarish deb ta'riflangan: "to say is to do something" – "so'zlash biror-bir harakatni bajarishni anglatadi" [22, 122-129-b.]. Performativ (ijro etuvchi) gaplar tarixda, asosan, urushni e'lon qilishda, qasamyod qilish, vasiyatnoma tuzish, va'da berish, garov tikish bo'yicha takliflar va bitim tuzish haqidagi takliflarda ishlatilgan. Yuridik diskurs misolida shu diskursning ishtirokchilari ham so'zlash orqali ma'lum bir harakatlarni amalga oshiradi. Binobarin, qonun chiqaruvchilar qonun loyihalarini o'rganib, muhokama qiladilar, zaruriy holatlarda o'zgartirish kiritadilar va qabul qiladilar. I.A. Vinogradov fikricha esa performativ gaplar, asosan, oltita zaruriy belgiga ega bo'lishi kerak: 1) ma'lum bir an'anaviy tartibga ega bo'lishi; 2) unga muayyan shaxslar yoki holatlar mos kelishi; 3) bu uning barcha ishtirokchilari tomonidan to'g'ri va 4) to'liq bajarilishi; 5) shu ishtirokchilar muayyan maqsadlarga ega bo'lishi va 6) shu tartib doirasida o'zlarini tuta bilishlari kerak. Shuningdek, performativ harakatning natijasi ham katta ahamiyatga ega, chunki bu mavjud holatning o'zgarishi yoki o'zgarmay qolishini belgilaydi. Masalan: *Sud tomonidan sudlanuvchi bir yil muddatga axloq tuzatish ishlariga hukm qilindi*. Agar bu ma'lumot sudlanuvchiga sudya tomonidan emas, boshqa bir shaxs tomonidan berilsa, u kasbiy fikr xarakteri va yuridik kuchga ega bo'lmaydi.

Preskriptiv vazifa esa aloqa funksiyasi va ta'sir funksiyasini birlashtiradi: yuridik diskurs yuridik ma'lumotni yetkazadi va qonun normalariga mos kelmasa, qanday jazo tayinlanishini belgilaydi.

Prezentativ vazifa yuridik tashkilot xodimlarining ijobiy fazilatlarini odamlar ongida mustahkamlashdan iborat bo'lib, asosiy sifat – professionallik hisoblanadi.

Yuridik diskursning strategik funksiyasi muloqot jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish uchun normativ-shartli strategiyalar va taktikalarni tanlash natijasida yuzaga keladi. Mashhur huquqshunos S.S. Alekseev e'tiroficha, "Strategiya – bu o'zaro institutsional mu-

nosabatlarning muayyan holatlarida qonun vositalari yordamida o'z maqsadiga erishmoqchi bo'lgan muloqot ishtirokchilari tomonidan qo'llaniluvchi kommunikativ harakatlar dasturi sanaladi. Shunday ekan, yuridik diskurs ham strategikdir, chunki u "hayotiy vaziyatlar"ga daxldor bo'lgan yuridik vaziyatlarni hal qilish uchun ham mavjud" [23]. Berilgan fikrlarga asoslanib, aytishimiz mumkinki, strategik funksiya deyilganda, hayotiy vaziyatlar, ya'ni kafillik, shartnoma yoki bitim tuzish, ijara masalalari, talonchilik, qotillik va b.larni qonuniy hal etishda turli xil strategiya (muzokara, tergov/so'roq qilish, sud majlisi va h.k.)lardan foydalanish nazarda tutiladi. Bunday diskurs strategiyalarini qo'llash esa muloqotning tegishli nutq vositalari hamda shunga mos foydalanilgan janrlar orqali kelib chiqadi va natijada shu janrlarning asosiy bo'lagi hisoblanadigan nutq aktlari (taktika)ga murojaat etiladi: direktiv, imperativ, performativ, deklarativ va b.

Yuridik diskursning parollovchi yoki kodlovchi vazifasi maxsus so'zlashuv belgilaridan foydalanishdan iborat bo'lib, bundan ko'zlangan asosiy maqsad yuridik institut mutaxassisleri doirasini shu institut xizmatidan foydalanuvchi shaxslardan cheklashdir. Shu maqsadda yuridik mutaxassislar ko'p holatlarda muayyan kasbiy terminologiya va boshqalarga tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan qisqartmalardan foydalanadilar. Masalan, ingliz tilidagi *B.A.P – Bankruptcy Appellate Panel; CL – Common law; JUST – justice*; o'zbek tilidagi *JPK – Jinoyat-prosessual kodeksi; FK – Fuqarolik kodeksi; BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti* va b.lar yuridik qisqartma terminlariga misol bo'la oladi.

Mazkur diskursning axborot berish vazifasi qabul qilingan qonun, qaror, shartnoma, shikoyat, ariza va bayonot matnlarida yuzaga keladi. Ta'kidlash joizki, yuridik xabarni izohlashda talqin qiluvchi shaxsning matnni to'g'ri, o'z ma'nosida tushunishi muhimdir. Negaki aniqlik nuqtayi nazaridan olib qaraganda, o'quvchining matnni talqin qilishi bilan muallif

talqini o'rtasida sezilarli farq bo'lishi tabiiy. Shu bilan birga, yuridik matnlarni talqin qilish yagona asosiy qoidaga asoslanishini unutmasligimiz kerak, u ham bo'lsa matnning faqat bitta to'g'ri ma'noga egaligidir. Aksincha, tushunish esa sud yoki boshqa davlat organlarining to'g'ri qaror chiqarishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

O'tmish va ko'p asrlik tajriba bilan bog'langan holda, yuridik diskurs kumulyativ funksiyasini amalga oshiradi, ya'ni bunda lingvistik shakllar davomiyligi hamda huquqiy klishelardan foydalanish an'analari saqlab qolinadi, ular: marosim iboralari, qonunchilik hokimiyatini ifodalovchi etnik qoidalar va maxsus qoliplar. Masalan, ingliz tilidagi: *"as her Majesty shall appoint/ shall think"*; *"May I respectfully draw the court's attention to..."*, *"overruled"* yoki o'zbek tilidagi: *"Hurmatli, raislik qiluvchi"* *"jazo tayinlansin"*, *"ozodlikdan mahrum etildi"*, *"ruxsat berishingizni so'rayman"*, *"qaror qilindi"*, *"zaruriy choralar ko'rilsin"*, *"jinoyat ishi ko'rib chiqilsin"* va b.lar.

Lingvistik jihatdan esa biz ko'proq Sh. Ko'chimovning yurislingvistika haqida keltirilgan fikrlariga tayanishni ma'qul deb bildik, chunki yuridik diskurs aynan shu soha-ning obyektini hisoblanadi. Tilshunos olim til va qonun o'rtasidagi munosabatlarni baholab, quyidagi maqsad va vazifalarni sanab o'tadi:

- yuridik til va yuridik nutqqa doir nazariy bilimlarni muttasil takomillashtirish;

- qonun tili, qonunchilik uslubi va qonunchilik texnikasi masalalarini ilmiy-amaliy tadqiq etish;

- qonun loyihalarida huquqiy normalarni ifodalashning metodologik asoslarini ishlab chiqish;

- amaliyotda qonunni qo'llash uchun qiyinchilik tug'dirayotgan ifoda usullarini aniqlash va uning samarali ifoda shakllarini tavsiya etish;

- yuridik terminlarni unifikatsiya qilish va ularni barqarorlashtirish;

- yuridik tarjimashunoslik, yuridik lug'atshunoslik va yuridik texnika masalalari.

- yuridik nutq nazariyasini ilmiy-nazariy tahlil etish;

- huquq va til ilmlarining o'zaro "kesishgan nuqtasi"ni, huquqning rivojida til, tilning taraqqiyotida huquqning vazifalarini belgilash;

- mamlakat va jamiyat rivojida davlat tili, yuridik til hamda yuridik nutqning o'rni va rolini o'rganish va b.lar [24].

Xulosalar

Shundan kelib chiqqan holda, bizning nazarimizda, ushbu ro'yxatni yanada kengaytirib, yuridik diskursning maqsadlari qatoriga quyidagilarni ham qo'shish mumkin:

- yuridik muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va munosabatlarni tahlil etish;

- yuridik til hamda og'zaki va yozma yuridik nutqning o'ziga xos lingvistik, ekstralingvistik xususiyatlarini o'rganish;

- yuridik til va yuridik nutqda qo'llaniladigan terminlarning strukturaviy, semantik va nominativ xususiyatlarini aniqlash, ularning tasnifiy muammolari va shakllanish tarixini o'rganish;

- shunga muvofiq, yuridik matnlarda terminlarni to'g'ri qo'llash qonuniyatlarini yaratish;

- yuridik nutq ritorikasiga xos xususiyatlarni o'rganish va yurist huquqshunolar nutqidagi ta'sirchanlik, soflik, soddalik, jo'yalilik, ifodalilik va boshqa sifatlarni tadqiq etish;

- yuridik til va nutqning soha doirasida bo'lmagan shaxslar uchun ham tushunarligini ta'minlash maqsadida lingvo-yuridik xususiyatlarini ochib berish va hokazo.

Shunday qilib, yuridik diskursning tilshunoslikda o'rganilishi tilshunoslikning nisbatan yangi paydo bo'lgan "Yurislingvistika" yoki "Lingvoyuristika" va chet el amaliyotida "Forensic linguistics" sohalari bilan aloqador hisoblanadi. Hozirgi kunga qadar ushbu soha rivojiga nafaqat xorijiy, balki o'zbek olimlari ham o'z hissalarini qo'shishgan. Shuningdek, tilshunoslikda yuridik diskurs, asosan, uchraydigan doirasida o'rganiladi

va boshqa institutsional diskurs turlari kabi yuridik diskurs ham o'z maqsad va vazifalari-

ga ega bo'lib, ular mazkur diskurs mohiyatini anglashdagi birlamchi omillardir.

REFERENCES

1. Barabash O.V. Jurislingvistika: istoki, problemy, perspektivy [Forensic linguistics: origins, problems, prospects]. Vestnik Penzenskogo gosudarstvennogo universiteta – Bulletin of Penza State University, 2014, no. 2 (6).
2. Mirhamidov M., Norpo'latov N., Hamidov S. Yuristning nutq madaniyati [The culture of speech of a lawyer]. Tashkent, Fan va texnologiyalar, 2005.
3. Gibbons J. Forensic Linguistics. An introduction to language in the justice system. UK, Blackwell Publishing, 2003; Olsson J. Forensic Linguistics: An introduction to Language, Crime and the Law. London, Continuum, 2004; Conley J.M., O'Barr W.M. Rules versus Relationships: the Enthography of Legal Discourse. Chicago, London.
4. Golev N.D. Juridicheskij aspekt jazyka v lingvisticheskom osveshhenii. Jurislingvistika-1. Problemy i perspektivy [The legal aspect of language in linguistic coverage. Legal Linguistics-1. Problems and prospects]. Barnaul, 1999.
5. Stupnikova L.V. Sushhnost' i osobennosti juridicheskogo diskursa anglijskogo prava [The essence and features of the legal discourse of English law]. Vestnik MGLU – MSLU Bulletin, 2007, No. 519.
6. Kosonogova O.V. Harakteristiki juridicheskogo diskursa: granicy, sodержanie parametry [Characteristics of legal discourse: boundaries, content parameters]. Gumanitarnye nauki: Istoricheskaja i social'no-obrazovatel'naja mysl' – Humanities: Historical and social-educational thought, 2015, No. 1 (7).
7. G'ulomova G.Y. O'zbek yuridik terminologiyasining istiqloq davri taraqqiyoti. Filol. fan. nomz. dis. [The development of Uzbek legal terminology in the period of independence. Abstract of the thesis. dis. Cand. Phil. Sciences]. Tashkent, 2004; Kasymova M.X. Strukturno-sistemnye osobennosti juridicheskoy terminologii uzbekskogo jazyka. Dis. kand. filol. Nauk [Structural and systemic features of the legal terminology of the Uzbek language. Dis. candidate of philological sciences]. Tashkent, 1986; Tursunova O.F. O'zbek davlatchiligi tarixida qo'llanilgan huquqiy terminlarning lisoniy tadqiqi [Linguistic study of legal terms used in the history of the Uzbek statehood]. Tashkent, 2007; Nishonov P.P. Fransuz va o'zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Filol. fan. nomz. dis. avtoref [Comparative and typological study of the legal terminology of the French and Uzbek languages. Abstract of the dissertation of the Candidate of Phil. Sciences]. Tashkent, 2009.
8. Ko'chimov Sh.N. Huquqiy normalarni o'zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muammolari (lingvo-yuridik tahlil) [Scientific and theoretical problems of the expression of legal norms in the Uzbek language (linguistic and legal analysis)]. Tashkent, 2004. Available at: <http://www.yurislingvistika.ukit.me/>; Q.A. Mo'ydinov. O'zbek tili sud nutqi leksikasi. Filol. fan. nomz. dis. avtoref. [The Uzbek language is the lexicon of judicial speech]. Tashkent, 2019.
9. Mosesova M.Je. Jazykovaja reprezentacija kategorii performativnosti v anglojazychnom juridicheskome diskurse (na materiale tekstov mezhdunarodnyh konvencij). Avtoref. dis. kand. fil. Nauk [Linguistic representation of the category of performativity in the English legal discourse (based on the texts of international conventions). Abstract of the dissertation of the Candidate of Phil. Sciences]. Pjatigorsk, 2020.
10. Atabekova A.A., Vasilenko L.Ju. O sovremennykh issledovaniyakh juridicheskogo diskursa [About modern research of legal discourse]. Vestnik RUDN. Seriya Voprosy obrazovaniya: jazyki i special'nost' – RUDN Bulletin. Series Educational issues: languages and specialties, 2020, no. 1.
11. Balamakova A.V. Kommunikativno-pragmaticheskaja interpretacija intonacii voprositel'nogo vyskazyvaniya v ustnom juridicheskom diskurse (na materiale amerikanskogo varianta anglijskogo jazyka. Avtoref. dis. kand. fil. nauk) [Communicative-pragmatic interpretation of the intonation of an

interrogative statement in oral legal discourse (based on the American version of the English language). Abstract of the thesis. dis. Cand. Phil. Sciences]. Ivanovo, 2010.

12. Coulthard M., Johnson A. An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence. London; New York, Routledge, 2007.

13. Makarov M.L. Osnovy teorii diskursa [Fundamentals of the theory of discourse]. Moscow, ITDGK «Gnozis», 2003.

14. Mazneva Ju.A. O juridicheskom diskurse i ego funkciyah [About the legal discourse and its functions]. Filosofija prava – Philosophy of Law, 2015, no. 5 (72).

15. Pozzo B. Ordinary Language and Legal Language. Milan, Giuffrè Editore, 2005.

16. Soloshenko A. Emotions in Legal Fiction: Conceptual Metaphors and Cross-Domain Mapping with ATLAS.ti. Université De Strasbourg, 2016.

17. Kövecses Z. Metaphor, A Practical Introduction. Oxford, Oxford University Press, 2002.

18. Palashevskaja I.V. Funkcii juridicheskogo diskursa i dejstvija ego uchastnikov [The functions of the legal discourse and the actions of its participants]. Izvestija Samarskogo nauchnogo centra Rossijskoj akademii nauk – Proceedings of the Samara Scientific Center of the Russian Academy of Sciences, 2010, no. 5 (2).

19. Vinogradov I.A. Svojstva, funkcii i jazykovye cherty juridicheskogo diskursa [Properties, functions and linguistic features of legal discourse]. Vestnik MDU im. A. A. Kuljashova – Bulletin of the A.A. Kulyashov Moscow Road University, 2018, no. 1 (51).

20. Goodrich P. Legal discourse: Studies in Linguistics, Rhetoric and Legal Analysis. London, The Macmillan Press LTD.

21. Malinovskaja T.N., Menshhikova G.A. Osobennosti anglojazychnogo juridicheskogo diskursa v kognitivno-pragmaticheskom aspekte (based on the films «deja vu», «the judge») [Features of the English-language legal discourse in the cognitive-pragmatic aspect (based on the films “deja vu”, “the judge”)]. Filologija i chelovek – Philology and man, 2020, no. 2.

22. Ko'chimov Sh.N. O'zbekiston Respublikasi qonunlarining tili. Filol. fan. nomz. dis. [Language of laws of the Republic of Uzbekistan. Abstract of the dissertation of the Candidate of Phil. Sciences]. Tashkent, 1995.